TALABA-YOSHLARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Xudayberdiyev Abdumajid, Boyjigitov Nishonboy - Guliston davlat pedagogika instituti yoshlar ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari
E-mail: Abddumajid85@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba-yoshlarni ta’lim-tarbiya berishda qo‘llaniladigan pedagogic va axborot texnologiyalardan foydalanish haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, pedagogika, texnologiyalar.

Axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiyalarni uzluksiz ta’lim tizimida rivojlanishini yakuniy natijalarini ta’minlashda asosiy o‘rinlardan birini egallab bormoqda, biz buni ta’lim va tarbiyaning barcha jabhalarida ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarda axborot texnologiyalarning ma’lumot va materiallaridan iloji boricha ko‘proq foydalanish shu kunning dolzarb masalalariga aylanib borayotganligini jamiyat taraqqiyoti uning rivoji har jabhada ko‘rsatib turibdi.

Uzluksiz ta’lim tizimida yosh avlodni tarbiyalash jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagogik texnologiya turlarini shakllantirish va ular asosida ta’lim jarayonini tashkillash, boshqarishda asosiy manba sifatida maydonga chiqadi. Jumladan, hozirgi kunda o‘quvchi, talaba va magistrlar internet orqali o‘ziga zarur bo‘lgan ko‘plab ma’lumotlarni olmoqda va qayta ishlamokda. Agar biz shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo‘lsak, pedagogik texnologiyani qo‘llamoqchi bo‘lgan fan o‘qituvchisi birinchi navbatda fan buyicha axborot ma’lumotlariga tayansa maqsadga muvofik, bo‘ladi. Bunda albatta axborot ma’lumotlari juda ko‘p shuning uchun bu ma’lumotlarni yosh, psixologik xususiyatlarni hisobga olgan xolda qayta ishlab o‘quvchilar ongiga yetkazishga harakat qilishi lozim.

Endilikda, ta’lim soxalari, jumladan, tabiiy, texnika, texnologiya, amaliy fanlar, kasb-hunar, maxsus ta’lim bo‘yicha o‘qitishning zamonaviy usul va uslubiyotlari va ularni o‘quvchi-talabalar ongiga singdirish hamda axborot ma’lumotlarini tizimlashtirib berish uchun pedagogik texnologiyalar majmualari mavjud.

Hozirda mavjud bo‘lgan pedagogik texnologiyalar (ularni tarkibida albatta axborot texnologiyalari mavjud)ni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar xaqida gapirishdan oldin shuni eslatib o‘tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo‘lib, u faqatgina bittagina omildan, metoddan, tamoyildan foydalanmaydi, lekin xar bir pedagogik texnologiyadan asosiy e’tibor ta’lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo‘yicha turlarga ajratiladi. Jumladan:

Ta'lim oluvchiga yondoshuv turi buyicha: Talabalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida universitet kafedralarida xamkorlik texnologiyalariga yo'naltirilgan holda, mavzularning didaktikaning konuniyatlariga tayangan (ya'ni, oddiydan murakkabiga tomon) holda, jamiyat ehtiyojlarini, pedagogik-psixologik holatlarni hisobga olgan holda, shaxsni hozirgi davlatimiz siyosatiga mos g'oyaviy konsepsiyalar asosida tarbiyalashda yoshlarga oid davlat siyosatini ustivor yunalishlarini erkin tarbiya jarayonida ularning ongiga singdirib borish masalalarni yechishga yo'naltirilgan.

- xamkorlik texnologiyalariga yo'naltirilgan;
- didaktik yo'naltirilgan;
- ijtimoiy yo'naltirilgan;
- pedagogik yo'naltirilgan;
- shaxsga yo'naltirilgan;
- insonparvarlikka va shaxsga yo'naltirilgan;
- erkin tarbiyaga yo'naltirilgan;

Qo'llaniladigan asosiy metod bo'yicha: Mavzularni yoritishda qo'llaniladigan asosiy ta'lim va tarbiya metodlari o'quv fan dasturlarida atroflicha yoritilgan va shular asosida ta'lim-tarbiya beriladi

- axborotli (kompyuterli) ta'lim metodi;
- dasturlashtirilgan ta'lim metodi;
- tushuntirish, ko'rgazmali;
- rivojlantiruvchi ta'lim;
- muammoli, izlanishli;
- ijodiy metod;
- dialogli metod;
- o'z-o'zini rivojlantiruvchi ta'lim metodi;

Tashkiliy shakllariga ko'ra: Ta'lim-tarbiya jarayonida axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llash eng birinchi navbatda quyidagi texnologiyalarni shakllarini mukammal bilishni talab etiladi.

- axborot texnologiyalarni loyixalash;
- axborot texnologiyalarini uzlashtirish;
- shaxsga yunaltirilgan axborot texnologiyalari asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- axborotlarni jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- axborotlarni samaradorligini oshirish asosidagi pedtexnologiyalar;
- tabiatga moslashtirilgan texnologiyalar;
- rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
- mualliflik maktablari pedagogik texnologiyalari.

Shaxsning xususiyat va sifatlari tarkibiga yo'naltirilganlik bo'yicha:

Shaxsning xususiyat va sifatlari birinchi navbatda ma'naviy barkamollik xamda komil insonlik tomon yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir, quyida ularni yo'nalishlari keltirilgan;

fanlar bo'yicha bilim, o'quv, ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan - axborot texnologiyalari;

aqliy faoliyat usullarini shakllantirishga yo'naltirilgan - operatsion texnologiyalar;

estetik va axloqiy munosabatlar soxasini shakllantirishga yo'naltirilgan emotsional-badiiy va emotsional-axloqiy texnologiyalar;

shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyalari;

ijodiy qorbiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan-evristik texnologiyalar.

Barkamol avlod, komil insonni tarbiyalash va ta'lim berish yo'nalishidagi tarkibida axborot, telekommunikatsion texnologiyalar mavjud pedagogik texnologiyalarni yuqorida aytilganlardan tashqari yana bir qancha belgilariga ko'ra ham turlarga ajratiladi. Bunday turlarga ajratishlar har bir pedagogik texnologiya o'ziga xos ekanligidan kelib chiqadi hamda ularni ilmiy-nazariy hamda amaliy maqsadlar nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilishga, o'zlashtirishga, yanada rivojlantirishga hizmat qiladi.

Barkamol avlodni komil inson qilib tarbiyalash jarayonida ta'lim -tarbiyaning asosini axborot kommunikatsiya texnologiyalari xamda pedagogik texnologiyalar o'rni xamisha oshib takomillashib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T. Fan, 2000.
2. Azizxujayeva N.N.. Pedagogik texnologiya va texnologik mahorat. T. TDPU, 2003.
3. Ismailova Z.K., Musayev R.S, Shayusupova A.A. O'qitishning zamonaviy texnologiyalari. O'quv qo'llanma. TIMI, 2008.
4. Ismailova Z.K., Musayev R.S. Ta'limning texnik vositalari. O'quv qo'llanma. TIMI, 2008.
5. Xudayberdiyev A.A., Boyjigitov N.M. "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Iqtosodiyot tarmoqlarining muammolari va ularning innovatsion yechimlari" Xalqaro miqyosidagi ilmiy anjuman 2022 yil.